

## **OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA XORIJIY TIL FANINING AHAMIYATI**

*Ibrogimova Azizabonu Baxrom qizi*

*Samarqand Davlat Chet tillari instituti Ingliz II fakulteti*

*Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi 2-kurs 2230-guruh talabasi*

*e-mail: [ibragimovaazizabonu@gmail.com](mailto:ibragimovaazizabonu@gmail.com)*

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola xorijiy ta'lim yo'nalishi va fanining ahamiyati, ta'lim muassasalaridagi o'rni haqidadir. Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tilning o'rni hozirgi kunda juda ham kuchayib bormoqda va uning jamiyatdagi o'rni ham yuksalib bormoqda. Shu sababli ham xorijiy til xalq orasida keng ommalashuvga sabab bo'moqda. Buning asosiy sabablaridan biri shuki- xorijiy til orqali nafaqat dunyoni bilish, balki, xorijiy mamlakatlarda ta'lim olish va u yerda o'zining muvofaqiyatli kelajakni ham qurish mumkin.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, talabalar, metod, tillar, kelajak, ustuvorlik, mamlakatlar, xorijiy tillar, malaka, ko'nikma, qobiliyat.

### **ABSTRACT**

This article is about the importance of foreign education and science, its place in educational institutions. The role of a foreign language in higher education institutions is becoming increasingly stronger, and its role in society is also growing. For this reason, the foreign language is gaining popularity among the people. One of the main reasons for this is that through a foreign language, one can not only learn about the world, but also get an education in foreign countries and build a successful future there.

**Key words:** education, students, method, languages, future, priority, countries, foreign languages, qualification, skill, ability.

### **KIRISH.**

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda xorijiy tillarni o'rgatish va o'rganish uchun bir necha qulay imkoniyatlar yaratilib kelinmoqda. Shu jumladan, ko'plab Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'zidanoq xorijiy til alifbosi va so'zlarini yodlatish ta'lim standartining bir bo'limi sifatida allaqachon qonunga kiritilgan desam adashmagan bo'laman. Endi Oliy ta'lim muassasasida esa xorijiy til ayniqsa ingliz tilining o'rni beqiyosdir. Ayni sabablaridan biri shuki, hozirgi kunda ingliz tilidan B2 darajali sertifikat bor, bakalavr bosqichini tamomlagan, sohasi ingliz tili bo'lmagan insonlarga magistratura uchun o'qishga qabul qilinadilar. Agar sohasi ingliz tilini o'qitish bo'lgan insonlar esa C1 darajadagi sertifikatiga ega bo'lishi majburiydir va ayanan ularga bakalavrdan keying ta'limni davom ettirishlari mumkin. Buning

o'zidanoq shu narsani bilish mumkinki, ingliz tilining yoki boshqa xorijiy tilning o'zni bizning respublikamizda kuchayib bormoqda.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR.**

Bundan shu narsani ko'rish mumkinki, ayrim insonlarda xorijiy tilni o'rganish biroz qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Ammo qachonki, Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarning biri o'rgatilsa va ular bilan haftada kamida ikki marotaba shug'ullanishsa, ular uchun bu o'zga tilni o'rganish ancha oson kechadi. Endi shu o'rinda ayrim metod va uslublarni ko'rib chiqsak:

- **umumiy bosqich** (umumiy chet tili o'rganiladi). - kasbga yo'naltirilgan bosqich (chet tili maxsus maqsadlarda o'rgatiladi). Har bir kurs uchun ajratilgan o'quv soatlari teng, ya'ni 50%dan taqsimlanadi.

- **Kommunikativ faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv** – ta'limning rivojlantiruvchi, funksional va kommunikativ xususiyatlariga ega bo'lib, ta'lim jarayonida bilish faolligini oshirishga ko'maklashadi. Ta'lim jarayonida mazkur yondashuv talabalarda refleksiya, o'zo'zini rivojlantirish, namoyon etishga ko'maklashadi; chet tili ta'limini madaniyatlararo muloqot sifatida tashkil etishga; dars jarayonida o'qituvchi talabalarning o'zaro teng huquqli ishtirokchi sifatida o'zini namoyon etishlarini ta'minlaydi; ta'limning interaktiv shakllarini qo'llash; talabalarda yangi til malakalari, sotsio-madaniy bilimlar, amaliy malakaviy ko'nikmalarni mustaqil egallashni rivojlantirish.

- **qobiliyat taraflama rivojlanish** – bunga har bir insonning o'z qiziqishi va harakteriga qarab biror kasb yoki soha, tillarni va kasb-xunarlarini o'rganishi mumkin. bu esa ularning boshqalardan tez va oson o'rganishlariga sabab bo'ladi.

-**maqsadli o'rganish**- bunda har bir inson biror kasb yoki sohani biror maqsadi orqali o'rganadi. Bundan asosiy sabab esa maqsadga eltuvchuvchi yo'l bu –til deb biladi.

Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tilni o'rganuvchilar turlicha maqsadda o'rganadilar va Oliy ta'lim ularga shunchaki ko'prik vazifasini bajaradi. Har qanday talaba o'z kasbining ustasi bo'lib yetishishi uchun xorijiy tilni bilishi ancha zarur. Chunonchi, ximat safari yuzasidan ham biror joyga borishi taqozo etiladi. Aynan o'sha paytlarda unga biror xorijiy tilni bilishi asqotadi. Shu sababli ham xorijiy tilni Oliy ta'lim muassasalarida fan sifatida o'tiladi.

Bizning bundan oladigan xulosamiz shuki, nemis tili bo'ladimi, ingliz tili yoki boshqa bir til – bularning barchasi biz uchun zarar qilmaydi. Aksincha foydali taraflarini ko'proq izlab ko'rishimiz va uni hayotimizga tadbiiq etishimiz zarur hisoblanadi. Faqat o'qishning davomi uchun til o'rganish insonning eng katta vaqt va pul yo'qotishiga olib kelishi mumkin. aynan mening fikrimcha Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tilni o'rgatish yoki shu tilni kasb qiluvchilar uchun bo'ladi yoki bu tilni keyinchalik o'rganish taqozo etganda oson bo'lishi va kelajakda farzandlariga

qo'shimcha ta'lim berishida asqotishi tayin. Garchi keraksiz deb ba'zi insonlar xorijiy tillarga unchalik ham qiziqshmaydi. Bu kabi insonlar asosan o'z yurtida qolib yashashni istaydiganlarda kuzatiladi. Ular hatto Oliy ta'limdagi xorijiy til fanlariga ham qiziqishmaydi va unchalik o'rganishmaydi. Bir narsani ta'kidlash joizki. Xorijiy tilni qayerda o'rgansangiz ham uni chin dildan qiling.

#### **ELEKTRON MANBAALAR**

1. <http://www.e-library.tsuos.uz/>
2. <http://www.fledu.uz/>

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Bakiyeva G.X., Samatova B.R., Tursunov M.M. va boshkalar. —Chet tili fani buyicha barcha bakalavriat ta'lim yunalishi talabari uchun fan dasturi. T. 2018 yil 14 iyun.
2. Davlatov K.D. "XORIJIY TIL (DEUTSCH) fani bo'yicha O'QUV USLUBIY MAJMUA". Toshkent – 2019
3. Bekmuratova N.A., - Science and innovation// International scientific journal// Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili darslarida mutaxassislikka oid materiallardan foydalanib o'qitishning hozirgi holati.
4. Zubaydova N.N The teaching of English for specific purposes. Toshkent.Scientific researches for development future International conference proceedings. 100 tom. 2-bet. 2019
5. Zubaydova N.N How to teach vocabulary. Nofilolog Oliy o'quv yurtlarida chet tilini o'qitishda uchraydigan muammolar va ularning yechimi. Ilmiy to'plam.2019. 166-169 betlar